

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN FAOLIYATINING
XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O‘YINNING AHAMIYATI****SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH-***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchi**u.shomurotov@dtpi.uz**+998915107420***MAMATALIYEV KOMIL ABDURAYIM O‘G‘LI****MAMATQULOV ABDUVALI ABDURASULOVICH***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Jismoniy madaniya ta’lim yo’nalishi**1-bosqich 10-MJ guruh talabalari*

Annatatsiya Ushbu maqolada o‘yinning bola xayotidagi ahamiyati, o‘yinning boalaga psixik, fiziologik va ma’naviy ozuqa berishi, o‘yin orqali bola hayotga moslashishi dunyoqarashining o‘sishi, muloqoting boyishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tilgan

Kalit so‘z: O‘yin, obraz, psixika, agressiya, muhit, muammo, muloqot, mehnat faoliyati

O‘yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi g‘oyat katta ahamiyatini nazarda tutib, mashhur pedagoglar va mutafakkir yozuvchilar o‘zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarini yozib qoldirganlar. A.S. Makarenkoning fikricha, bolalarning o‘yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, bolalar uchun o‘yin shunchalik ahamiyatga ega. «Yaxshi o‘yin faoliyati, - deydi A.S. Makarenko, - yaxshi bajarilayotgan mehnatga o‘xshaydi. Mana shuning uchun bolalar o‘yin faoliyatida o‘zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo‘lganlaridan so‘ng mehnat faoliyatlarida ham ko‘p jihatdan o‘zlarini shunday namoyon etadilar». A.S. Makarenkoning bu fikri bolalarning o‘yin faoliyatlari orqali ularda yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalash imkoniyati naqa- dar katta ekanligiga ahamiyat bilan qarashni taqozo etadi. O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning shakliga, ya’ni ta’lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajri- balarni egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan, ma’lum malaka, ko‘nikma hamda elementar tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Bularga esa bola faqat o‘yin faoliyati tufayligina erishadi.

O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda bolalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritish ham, san’at, xayol qilish, dam olish

va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlangandir. Mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi hamda bolalar talab qilayotgan darajadagi to'laqonli hayotni ta'min eta oladi. O'yinning bolalarni maftun etuvchi tomoni ana shunda. O'yin faqat tashqi muhitdagi, narsa va hodisalarni bilish vositasi bo'libgina qolmay, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va mazmunli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birlikda ularning individual fazilatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin maktabgacha ta'lim- tarbiya ishlari orasida eng asosiysi hisoblanib, markaziy o'rinda turadi. Demak, maktabgacha yoshdagi ta'lim-tarbiya ishlari- ning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda tashkil qila bilishga bog'liqdir.

Bolaning haddan tashqari o'yinga berilib ketishini (xayoliy tarzda cho'pdan yasalgan o'tni, stulchalardan qilingan paro- xodni berilib haydashni) real voqelikdan chetga chiqib ketish deb qaramaslik kerak. Bola voqelikni, ya'ni o'zi yashab turgan muhitni va undagi turli-tuman narsa hamda hodisalarni juda sevadi. Bola o'zining voqelikka bo'lgan cheksiz muhabbati- ni va undagi narsa hamda hodisalarni bilishga bo'lgan intilishi- ni o'zining xilma-xil o'yin faoliyatlarida ifoda etadi. Shuning uchun bola o'zining turli variantdagi o'yinlarida xayoliy muhit yaratib, voqelikni mumkin qadar to'la va to'g'ri aks ettirishga intiladi.

Chet el psixologlaridan J. Piaje va Koffkaning fikricha, bolalar go'yoki bir-biridan ajratilgan ikki xil dunyoda, ya'ni xayollar, afsonalar dunyosida va (real) voqeiy dunyoda yashaydilar. Bolalar o'zlarining faoliyatlarida qanchalik xayolga berilib ketmasinlar, har doim voqeiy dunyoga, undagi real narsalarga nazar tashlab turadilar. Buning haqiqatdan ham shunday ekanligini ularning o'yin jarayonida o'z xatti-harakatlariga «bunday bo'ladi», «bunday bo'lmaydi» deb baho berib turishlaridan ko'rish mumkin. Ular qanchalik o'yinga berilmasinlar, voqeiy dunyoni hech qachon unutmaydilar va unga go'yoki andaza tariqasida zimdan qarab turadilar.

Psixolog A.N. Leontyevning fikricha, bolalarning o'yin faoliyatlarida real voqelikdan chetga chiqib ketish darajasidagi afsonaviylik yo'q. Bolalar o'yinlaridagi turli-tuman harakatlar va narsalar voqelikda haqiqatdan bor bo'lgan real harakat hamda real narsalarning real obrazlaridir. Bola o'zi yashab turgan real voqelik bilan bog'liq bo'lmagan xayoliy, afsonaviy o'yinlar ya- ratishning hali uddasidan chiqa olmaydi. Chunki bola hali o'zi bilmagan, ko'rmagan, eshitmagan narsalarini o'z o'yin faoliya- tida aks ettira olmaydi. U yoki bu o'yinni o'ynash uchun bolalar albatta elementar ravishda bo'lsa ham hayotiy hodisalar hamda mehnatning bir qancha turlari bilan tanish bo'lishlari kerak. Demak, bolaning hayoti qanchalik mazmundor va yashash doirasi qanchalik keng bo'lsa, uning o'yinlari ham shunchalik xilma-xil bo'ladi. Natijada bola zerikib, toliqib qolmaydi. Bolalar hayotini mazmundor qilish ko'p jihatdan tarbiyachilar hamda ota-onalarga bog'liq. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarni vaqti-vaqti bilan sayohatga olib chiqib turishlari maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadi. Bolalar o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratadilar. Odamning tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki aktiv hamda ijodiy yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati, o'yinning umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir kasb egasining emas umuman haydovchilarning, militsionerlarning, tarbiyachilarning, uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribasi va faoliyat doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni (onasini, otasini va boshqalarni) va ularning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. O'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda o'rganish imkonini beradi. Bolalarning individual xususiyatlarini xususan ularning guruhiiy o'yinlari orqali kuzatish qulaydir.

Guruhiiy o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «Sotuvchi - xaridor» o'yinida bolalar sotuvchi, kassir, ishchi, xaridorlar rollariga bo'linib o'ynaydilar. Bolalarning mana shu kabi guruhiiy o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, guruhiiy o'yinda har bir bola o'z rolini yaxshi bajarishga intilishi bilan birga o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi.

Mazmunl-rolli o'yinlar va ularning ahamiyati. Bolalar bog'chada asosan mazmunli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni o'ynaydilar. Ular o'zlarining turli o'yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, bayramlarni, muhim sanalar kabi hodisalarni qayta tiklaydilar.

Ko'pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o'yin faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bola- lar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma-xil bo'lsa, bolalar o'yinining mazmuni ham shunchalik keng va xilma- xil bo'ladi. Ana shuning uchun kichik bog'cha yoshidagi bolalar o'yinlarining mazmuni nihoyatda tor bo'ladi. Bolalar o'sib ulg'aygan sari ular o'yinining sujeti tobora boyib, xilma-xil- lashib boradi. O'yin turining ko'payishi bilan birga o'yinga sarf qilinadigan vaqt ham ortib boradi. Masalan, uch yoshli bolalar 10—15 daqiqa mobaynida o'ynaydigan bo'lsalar, 4—5 yoshli bolalar esa 40—50 daqiqa davomida o'yin faoliyati bilan shug'ullanadilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalarida o'yin faoliyati bir necha soat va hatto bir kundan ortiq vaqt mobaynida davom etishi mumkin.

Bir xil mazmundagi o'yinlar kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ham, katta yoshdagi bog'cha bolalarida ham uchraydi (ma- salan, «Ona-bola» o'yini «Bog'cha»

o'yini kabi). Turli yoshdagi bog'cha bolalari o'yinlarining nomi bir xil bo'lsa ham, mazmuni har xil bo'ladi. Chunki, kichik yoshdagi bolalar voqelikning ayrim tomonlarini aks ettirsalar, katta yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida voqelikning boshqa tomonlarini aks ettiradilar.

Katta yoshdagi bog'cha bolalari mazmunli o'yinlardan tashqari rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni ham juda mohirlik bilan o'ynaydilar. Rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni aks ettiradilar. Bunday o'yinlar amalga oshirilishi jihatidan birmuncha murakkabdir. Bunday o'yinlarda oldin rollar taqsimlab olinadi. O'yinda ishtirok etuvchi har bir bola rolini ustalik bilan bajarishi kerak bo'ladi. Hamma bolalar ham bunday vazifaning uddasidan chiqavermaydilar. Kichik yoshdagi ayrim bolalar tasavvur doiralari keng bo'lmaganligi sababli o'z rollarini hali yaxshi bajara olmaydilar. Shuning uchun rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar asosan katta yoshdagi bog'cha bolalariga taalluqlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning mazmunli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holidagi amalga oshiriladi. Mazmunli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar bolalarning ko'pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin sharoitining o'ziyiq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yo'naltirishni talab qiladi. Bu esa, o'yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya'ni ular kuzatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroficha va chuqur analiz qiladigan bo'ladilar.

O'yinlar jarayonida bolalarning bir-birlari bilan faol munosabatda bo'lishlariga imkon yaratiladi. Bu esa, bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, mazmunli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning o'z qonun-qoidalari mavjud. Bu qonun-qoidalarga rioya qilishda bolalar o'z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o'yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatleri ham jadal rivojlanadi.

Demak, bog'cha yoshidagi bolalar o'yinlari quyidagicha psixologik xususiyatlarga ega:

- 1) o'yin mavzusining haddan tashqari sermazmunligi va boyligi;
- 2) bolalar o'yin faoliyatlarida milliy tuyg'uning aks etishi;
- 3) o'yin jarayonida vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lishidadir. O'rta va katta bog'cha yoshidagi bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari, yasagan buyumlari milliy urf-odatlar, an'analarga asoslanganligi;
- 4) bolalar o'yini jarayonida psixik jarayonlarining diqqati, sezgi va idroki, xotirasi, tafakkur va nutqi, xayoli, his-tuyg'u, irodasi, xarakteri va qobiliyatining namoyon bo'lishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning turli-tuman o'yin faoliyatlari sekin-astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi. Bolalarning o'yin faoliyatlariga tarbiyachilar ta'lim elementlarini ki-ritadilar. Natijada bolalar o'yin orqali juda ko'p narsalarni bilib

oladilar, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlari orta boradi. Demak, o'yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida qudratli vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To'ychiyeva.** *Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o'quv-me-todik qo'llanma).* TDPU, — T.: — 2004.
2. **Z. Nishanova.** Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent — 1998.
3. **M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova.** Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. — Toshkent. — 2003.
4. **S.X. Jalilova va boshqalar.** Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. — Toshkent. — 2009.
5. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O'YINCHOQLARNING TA'SIRI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.
6. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
7. Melikboboyevich, S. U., & Annamuhimmat o'g'li, S. A. (2024). Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 165-171.
8. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
9. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 93-103.
10. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O'YINNING AHAMIYATI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 85-92.
11. Melikboboyevich, S. U., Davrbek o'g'li, M. D., & Azamat Jo'rakul o'g'li, X. (2024). SHAXSDA SALBIY TUZILMALARNING PAYDO BO'LISHI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 218-228.